

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTINING TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA
O'YINLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI

Ortiqova Yulduz Akram qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti magistranti.

Shahrisabz, O'zbekiston.

Tel: + 998-91-633-26-22. e-mail: ortiqovayulduz2@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14555859>

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim jarayonida o'yinlarning nazariy va amaliy ahamiyati ko'rib chiqilgan. O'yinlarning bolalar rivojlanishiga ta'siri, ta'limiy o'yinlar turlari va ularni qo'llash usullari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: o'yinlar, ta'lim-tarbiya, maktabgacha ta'lim.

THEORETICAL AND PRACTICAL SIGNIFICANCE OF GAMES IN THE
EDUCATIONAL PROCESS OF A PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATION

Abstract. This article examines the theoretical and practical significance of games in the preschool education process. It analyzes the impact of games on children's development, types of educational games, and methods of their application.

Keywords: games, education and upbringing, preschool education.

ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ И ПРАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ИГР В
ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ ДОШКОЛЬНОЙ
ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ

Аннотация. В статье рассматривается теоретическое и практическое значение игр в процессе дошкольного образования. Анализируется влияние игр на развитие детей, виды образовательных игр и методы их применения.

Ключевые слова: игры, воспитание и обучение, дошкольное образование.

Maktabgacha yoshdagi bolalik davrida bola turli xil faoliyat turlari bilan shug'ullanadi.

Ammo o'yin bolaga ochilgan imkoniyatlar tufayli alohida faoliyat turidir. Maktabgacha yoshdagi bolani tarbiyalash va rivojlantirishda o'yinning roli L.S.Vygotskiy, S.L.Rubinshteyn, N.N.Poddyakov va boshqalarning asarlarida ochib berilgan.

O'yinni o'rganishga katta qiziqish XIX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'ldi, yosh avlodni tarbiyalash dolzarb masala bo'lgan davrda, o'yin shaxsni takomillashtirishning yangi faol vositasi sifatida taniqli rus o'qituvchilari, psixologlari va shifokorlarining e'tiborini tortdi.

Shunday qilib, N.G. Chernishevskiy va N. A. Dobrolyubov jismoniy tarbiya bo'yicha ilg'or qarashlari va o'yin haqidagi alohida bayonotlari bilan o'yin nazariyasiga qimmatli hissa qo'shdi.

O'yinlar ular axloqiy, jismoniy va aqliy tarbiyaning samarali vositalaridan biri sifatida qaraldi. Rossiyaning eng taniqli vakili pedagog K.D. Ushinskiy o'yinlarni ta'lim vositasi deb hisobladi. O'yin qisman insonning o'ziga xos ijodidir va u izsiz o'tmaydi, lekin ma'lum darajada yordam beradi, uning shaxsiyatini shakllantiriradi (1).

Chet el pedagog olimlaridan P.F.Lesgaft, K.D.Ushinskiy tomonidan o'yin nazariyasi ishlab chiqilgan. Ushinskiy bolalar faoliyatida o'yinning mehnat jarayoni asosida paydo bo'lganligini va uni yosh avlodni mehnat faoliyatiga tayyorlashdagi roli, o'yinning bola shaxsini shakllantirishdagi ahamiyatini asoslab berdi. U "Bolalar o'yinlari ko'p asrlik tarixga ega.

Insonning o'zi tomonidan ishlab chiqilgan qudratli tarbiyaviy vosita va shuning uchun ham unda inson tabiatining haqiqiy ehtiyoji ifodalangan" -deb ta'kidlaydi. Chunki har bir faoliyat jarayonida o'yin yetakchi tur sifatida qaraladi. O'yin bola tomonidan hayotiy tajribalari asosida ma'lum voqea va hodisalarni aks ettirgan holda namoyon bo'ladi. (2)

Bundan tashqari Ya.A.Komenskiy g'oyalari ham hozirgi zamon bolalarining o'yinlari nazariyasi uchun ham ahamiyatlidir. Ya.A.Komenskiy o'yinni bola faoliyatining, uning tabiati va mayllariga to'g'ri keladigan shakli deb hisoblar edi. Uning fikricha, o'yin – bolaning barcha ko'rinishlari rivojlanadigan aqliy faoliyatdir, o'yinda borliq, dunyo haqida tasavvurlari rivojlanib boradi va bolada nutqni rivojlantiradi deb ta'kidlaydi. Bola o'yin davomida o'ziga do'st orttiradi.

Ya.A.Komenskiy o'yinga quvnoq bolalik va bolani uyg'un rivojlanish sharti sifatida qarar ekan, kattalarga bolalar o'yinlariga e'tiborli munosabatda bo'lishni, ularga oqilona rahbarlikni qilishni maslahat bergan edi. Chunki har bir bola o'yin jarayonini o'zi yaratadi. Bunda bir xil bolalarda liderlik qobiliyatlari shakllanib boradi. Bolalar o'yinlarida albatta kattalar ham e'tiborli bo'lishi ular uchun qulay sharoitlarni yaratib berish, ularni xavfsizlik taraflarini ham e'tiborga olishlari va o'yin faoliyatida foydalanishi kerak bo'ladigan jihozlar bilan ta'minlab berishlari kerak bo'ladi.

O'yinning nazariy ahamiyatiga e'tiborimizni qaratamiz;

1. Rivojlanish nazariyasiga ko'ra , o'yin orqali bolalar o'z tasavvurlarini rivojlantiradilar.

Lev Vygotskiy ta'kidlashicha, o'yin bolaning "yaqin rivojlanish zonasini" kengaytiradi va intellektual faoliyatini rag'batlantiradi.

2. Didaktik ahamiyatiga ko'ra , o'yinlar murakkab bilimlarni oddiy va qiziqarli shaklda yetkazishga imkon beradi. Masalan, matematik tushunchalarni o'rgatishda "Sanash o'yini" bolalarning qiziqishini oshirib, mavzuni yaxshiroq tushunishlariga yordam beradi.

3. Shaxsiy sifatlarni rivojlantirish uchun esa rolli va ijodiy o'yinlar bolalarning mustaqillik, ijodkorlik va mas'uliyat hissini oshiradi. Ular bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'yinning amaliy ahamiyati uchun esa quyidagilarni misol qilib keltirib o'tish mumkin:

1. Muloqot va hamkorlik ya'ni guruhli o'yinlar bolalar o'rtasida o'zaro aloqa, hurmat va hamkorlik madaniyatini shakllantiradi. Masalan, "Jamoaviy topshiriq" o'yinida bolalar birgalikda maqsadga erishishni o'rganadilar.

2. Jismoniy rivojlanishda esa harakatli o'yinlar (masalan, "Kim tezroq?") bolalarning jismoniy salohiyatini oshirib, ularning sog'lom bo'lishiga yordam beradi.

3. O'yin orqali ta'lim: Didaktik o'yinlar bolalarning harflar, raqamlar va boshqa bilimlarni samarali o'zlashtirishiga ko'maklashadi. Masalan, "Ranglarni top" o'yini orqali bolalar ranglarni ajratishni o'rganadilar.

4. Muammolarni hal qilish ko'nikmasini shakllantirish uchun stol o'yinlari va boshqotirmalar bolalarda tahlil qilish, muammolarni hal qilish va sabrli bo'lish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Maktabgacha ta'limda o'yin turlari

1. Sahnalashtirilgan o'yinlar: "Do'kon", "Shifokor", "Oila" kabi o'yinlar orqali bolalar turli hayotiy vaziyatlarni sinab ko'radilar.

Sahnalashtirilgan o'yinlar.

Sahnalashtirilgan o'yinlar ijodiy o'yinlar sirasiga kiradi. Unga ijodiy o'yinning quyidagi asosiy mazmuni yotadi : niyatning mavjudligi, roli va mavjud harakatlar, hayol qilingan vaziyatning va boshqa elementlarning uyg'unligi, bolalarning mustaqillik va o'z-o'zini uyushtira olish jihati xos tarzda amalga oshiriladi. Sahnalashtirilgan o'yin badiiy asar asosida tashkil etiladi: o'yin syujeti, rolar, qahramonlarning xatti- harakatlari, ularning nutqi asar matniga ko'ra belgilab beriladi.

Sahnalashtirilgan o'yin bolalarning eshitgan asar yoki ertakdan olgan tasavvurlarini mustaqil ifodalash hamda mashq qilish imkonini yaratadi. Bu o'yinlar bolalarda iroda, intizom, o'z harakatlarini boshqalarning harakatiga muvofiq amalga oshirish kabi sifatlarni tarbiyalashda qo'l keladigan samarali vosita hisoblanadi. Sahnalashtirish bolalarni qayta so'zlashga o'rgatish usullaridan biri hisoblanadi. Ba'zi bir bolalarda badiiy asardan olingan parchani qayta so'zlab berishga xohish ham qiziqish ham bo'lmaydi, ammo unga o'yin usuli kiritilishi bilan bola asardagi rolga kirib, o'sha asar mazmunini juda yaxshi aytib berishga va mimikalari orqali harakat qilib tushuntirib beradi.

2. Didaktik o'yinlar: Ta'limiy maqsadlarga yo'naltirilgan o'yinlar, masalan, "Sonlar bo'yicha marshrut" yoki "To'g'ri rangni tanla".

Didaktik o'yinlar.

Didaktik o'yinlarning muhim elementi qoidalar hisoblanadi. Qoidalarni bajarish o'yin mazmunini amalga oshirishni ta'minlaydi. Didaktik o'yin ta'lim bilan bevosita bog'liq bo'lib, unga yordam beradi. Didaktik o'yin - bu maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh va imkoniyatlariga mos keladigan ta'lim berish jarayonidir. Tajribali tarbiyachi bu o'yindan passiv bolalarni jamoaga aralashtirish, har xil rejalar, vazifalarni qo'rqmasdan bajarishlari uchun foydalanadi. Didaktik o'yinni amalga oshirishda har doim g'oyaviylik prinsipiga asoslanishi kerak.

Didaktik o'yin tarbiyachining vazifa hamda maqsadlariga muvofiq kelishi shart.

Didaktik o'yinlar bolalarning birgalikda o'ynab, o'z manfaatlarini jamoa manfaatlari bilan uyg'unlashtira olishi, bir-biriga ko'maklashish va o'rtoq'ining muvaffaqiyatidan xursand bo'lishi kabi yaxshi munosabatlarning tarkib topishiga yordam beradi. O'yinlar shaxsning sofdillik, rostgo'ylik kabi ijobiy xislatlarini shakllanishiga imkoniyat yaratib beradi. Didaktik o'yin bolalarning amaliy faoliyati hisoblanadi, chunki unda bolalar mashg'ulotlarda olgan bilimlaridan keng ravishda foydalanadilar. Shu nuqtai nazardan qaraganda, olgan bilimlaridan har xil usulda foydalanishlari uchun hayotiy sharoit yaratadi. Bunday o'yinlarga kichik bolalar uchun "Rangiga qarab top", "Shakliga qarab top" kabi o'yinlarni misol tariqasida keltirish mumkin. Katta guruh bolalari uchun "Ishchilar nimalar va qanday ishlarni bilishadi?", "Dehqonlar nimalarni yetishtiradi?", "Kim ko'proq narsalarning nomini ayta oladi?" va boshqa o'yinlarni misol keltirish mumkin.

Didaktik o'yinlar ta'limiy o'yinlar sifatiga kiruvchi hamda bolani yoshiga mos keladigan o'yin turidir. Didaktik o'yinlar orqali bolalarga yangi bilimlar, tushunchalar berib boriladi. O'yin qoidasiga ro'ya qilish, unga amal qilish bu o'yinni mazmunini belgilaydi. Didaktik o'yinlarda quyidagi qoidalar ro'ya qilish kerak:

- 1.Navbatma- navbat ta'sir etish;
- 2.So'ralganda javob berish ;
- 3.O'rtoqlar fikrini tinglay olish;

4.O‘yin jarayonida boshqalarga xalaqit bermaslik;

5 .O‘yin qoidasini bajarish;

6.O‘z xatosini tan olish;

Didaktik o‘yinlarning asosiy turlari intellektual (aqliy) va harakatli hamda aralash o‘yinlardan tashkil topgan. Bu o‘yinlar ishtirokchilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, psixologik, estetik, badiiy tadbirkorlik, mehnat va boshqa ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Ta‘lim-tarbiya jarayonida asosan bolalarda ta‘lim olish motivlarini ularning turli yo‘nalishdagi qobiliyat va qiziqishlarini amalga oshiradigan biror kasbga moyilliklarini ko‘rsatadigan didaktik o‘yinlardan foydalaniladi. Didaktik o‘yinlar nazariy, amaliy, jismoniy, rol, ishchanlik va boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha turlarga ajratiladi. Hozirda kompyuter vositasidagi didaktik o‘yinlardan foydalaniladi va alohida o‘ringa ega bo‘lib bormoqda.

3. Harakatli o‘yinlar: "To‘p tashlash" yoki yugurish elementlariga ega bo‘lgan o‘yinlar bolalar sog‘lig‘ini mustahkamlaydi.

Harakatli o‘yinlar. Milliy harakatlar o‘yinlarni mashg‘ulotlar davomida qo‘llash bolalarda katta qiziqish uyg‘otadi, ularni kayfiyati va boshqa ruhiy sifatlariga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Tariximizdan meros bo‘lib qolgan o‘zbek xalq milliy o‘yinlari hayotda tadbqiq etishga kengroq yo‘l ochib berilishi, uni ommaviy tus olishida oilada, maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida, maktablarda, dam olish joylarida, har xil marosim va bayramlarda uni tashkillashtirish o‘ziga kelayotgan yoshlar tarbiyasiga ijobiy ta‘sir qiladi. Bilamiz, milliy xalq o‘yinlari qadim-qadim zamonlardan boshlab, xalq marosimlarida, urf-odatlarida mustaqil bir soha sifatida musobaqalarda, baxshilarda keng qo‘llagan bo‘lib, ming yillar davomida rivojlanib, takomillashib kelgan.

Xalq milliy o‘yinlari hozirgacha o‘z doiralarini yo‘qotmagan holda turli bayram va marosimlarida keng ravishda qo‘llanib kelinmoqda. O‘zbek milliy xalq o‘yinlari "Otda chopish", "Qiz quvlash", "Uloq", "Kamonda otish", "Xo‘rozlar jangi", "Besh tosh", "Sapalak", "Jambalak xola", "Kurash", "Kim tez o‘raydi", "Chillak" kabi o‘yinlar qadimgi o‘yinlar sirasiga kiradi.

Bu o‘yinlar orqali bolalarda botirlik, ephilik, muvozanatni saqlash sifatlarini rivojlantirishda, hamda qaddi-qomatni shakllantiradi va odob- axloq, ong, xotira, diqqat kabi xislatlarni rivojlantirishda va albatta sog‘liqni mustahkamlashda eng samarali vosita bo‘lib kelgan.

Harakatli o‘yinlarni to‘plash va ularni hayotga tadbqiq etish, ulardan oqilona foydalanish bugungi kunda oldimizda turgan ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan muhim vazifa bo‘lib hisoblanadi.

Nafas mashqlari, yurish turlari va sakrashlar, oyoq va qorin mushaklarini, gavda va umurtqani, oyoq va tovon bo‘g‘inlari mushaklarini tarbiyalashga qaratilgan mashqlar, chaqqonlik va jasurlik hamda muvozanat sifatlarini rivojlantiruvchi mashqlar, quvnoq bolalarning harakatli o‘yinlari.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy harakat turlarini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. O‘rgatishning ushbu bosqichida harakat malakalari va ko‘nikmalari ko‘lamining kengayishi, jismoniy fazilatlar (tezlik, chidamlilik, tezkorlik va boshqalar)ning rivojlanishi bilan bog‘liq holda ham mashqlarni yaxlit, ham harakat texnikasi elementlarini alohida-alohida muvaffaqiyatliroq o‘zlashtirish imkoniyati yuzaga keladi.

Besh-olti yoshli bolalarda o‘z oldilariga qo‘yilgan vazifalarni ongli tushunib yetish, vaziyatni baholash, o‘z harakatlarini boshqara bilishga muayyan tayyorgarlik bo‘ladi, shuning

uchun, ogʻzaki koʻrsatma berish va tushuntirish yordamida maktabgacha yoshdagi bolalarning harakat faoliyatida mustahkam bilim va koʻnikma shakllantirish mumkin boʻladi.

Maktabgacha taʼlim tashkilotlari uchun yaratilgan taʼlim-tarbiya dasturi, Maktabgacha taʼlimga qoʻyiladigan Davlat talablariga muvofiq barcha guruhda bolalar yurish, yugurish, muvozanat saqlash, sakrash, uloqtirish, tirmashib chiqishga oʻrganib, uni takomillashtirib boradilar, sport oʻyinlari: bastketbol, futbol, sport elementlari va hokazolarni egallaydilar. (3.)

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning maqsadi yosh avlodni vatanparvar, iymon-eʼtiqodli, yuksak maʼnaviyatli, keng dunyoqarashli, jahon standartlari darajasidagi kadrlar qilib yetishtirishdan iborat boʻlgan muhim vazifa sanaladi.

Yuksalish sari dadil qadamlar bilan odimlab borayotgan vatanimiz uchun keng dunyoqarashga ega, mustaqil fikrleydigan, bir qancha xorijiy tillarni puxta egallagan, zamonaviy texnologiyalardan foydalana oladigan, shu bilan bir qatorda taʼlim jarayoniga yangiliklar kiritish kabilarni amalga oshira oladigan, umuman olganda, yoshlarni tarbiyalash davr talablaridan biri desak mubolagʻa boʻlmaydi. Yosh avlodga vatan va xalq ravnaqi yoʻlida xizmat qilish, vatanni qoʻriqlash, eng asosiysi oʻzbek xalqining boy milliy urf-odat va qadriyatlariga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalash, maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab taʼlimiga tayyorlash jarayonida sezilarli darajada samara berishini yana bir bor taʼkidlab oʻtishimiz joizdir.

REFERENCES

1. Qoʻchqorova N.M "Maktabgacha taʼlim tashkilotlari tarbiyalanuvchilariga oʻyin orqali tarbiya berish" -- Toshkent - 2022; 6-8 b)
2. А.С. Яцковец, взгляды отечественных и зарубежных ученых на феномен игры, 190-191 с.)
3. Роль игры в жизни дошкольника» Самарина Л.Л., воспитатель, 1 квалификационная категория)
4. Axundova, R. (2015). Maktabgacha ta'lim va tarbiya metodikasi. Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi.
5. Bergman, A. (2018). The Power of Play: Learning What Comes Naturally. New York: Scholastic Inc.
6. Bruner, J. S. (1977). The Process of Education. Cambridge, MA: Harvar University Press.
7. Davydova, I. (2017). Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun oʻyin va uning tarbiyaviy roli. Tashkent: Oʻzbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
8. Elkonin, D. B. (1978). Psikhologiya i igrovaya deyatel'nost' detey. Moscow: Pedagogika.
9. Hughes, C. (2007). Children, Play, and Development. London: Sage Publications.
10. Maksudova, Z. (2019). Maktabgacha ta'limda oʻyin texnologiyalari. Tashkent: Navroʻz nashriyoti.
11. Pritchard, A. (2013). The Psychology of Education. London: Routledge.
12. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.
13. Zaripova, G. (2016). Oʻyin orqali maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual rivojlanishi. Tashkent: Sharq nashriyoti.